



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 120 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
Toyirova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	



TIJORAT BANKLARI DAROMADINI OSHIRISHDA AHOLINING SAVODXONLIGI VA XULQ ATVORINING ROLI

Shakhlo Davirova

TDIU "Bank ishi" kafedrası dotsenti., PhD

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklari daromadlarini oshirishda aholining moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy xulq-atvori muhim omil sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda aholining moliyaviy qaror qabul qilishdagi bilim darajasi, bank xizmatlaridan foydalanish motivlari, ishonch darajasi hamda psixologik omillarning bank daromadlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, banklar tomonidan aholining savodxonligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan strategiyalar samaradorligi baholanadi. Ish natijalari aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish orqali tijorat banklarining faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Tijorat bank, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik mezonlari va ularni baholash indikatorlari, davlat dasturlari, moliyaviy tashkilotlar.

Abstract: This research article examines financial literacy and economic behavior of the population as an important factor in increasing the income of commercial banks. The study analyzes the level of knowledge of the population when making financial decisions, motives for using banking services, level of trust and the influence of psychological factors on income. The effectiveness of the strategies implemented by banks to improve the literacy of the population is also assessed. The results of the work are practical proposals for the further development of commercial banks by increasing the financial culture of the population.

Key words: Commercial banking, financial literacy, financial literacy criteria and indicators for their assessment, government programs, financial organizations.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается финансовая грамотность и экономическое поведение населения как важный фактор увеличения доходов коммерческих банков. В исследовании анализируются уровень знаний населения при принятии финансовых решений, мотивы использования банковских услуг, уровень доверия и влияние психологических факторов на доходы банков. Также оценивается эффективность реализуемых банками стратегий по повышению грамотности населения. Результатами работы являются практические предложения по дальнейшему развитию деятельности коммерческих банков путем повышения финансовой культуры населения.

Ключевые слова: Коммерческий банкинг, финансовая грамотность, критерии финансовой грамотности и показатели их оценки, государственные программы, финансовые организации.

KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy tizimda chuqur islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, tijorat banklarining barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Banklar daromadining asosiy manbai bo'lgan mijozlar – xususan, aholi qatlamining moliyaviy savodxonlik darajasi va iqtisodiy xulq-atvori bevosita bank faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Aholining bank xizmatlari haqida yetarlicha bilimga ega emasligi, moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarining pastligi va xavfsizlikka oid noto'g'ri tasavvurlari ko'plab imkoniyatlarning boy berilishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli bank xizmatlariga o'tish jarayonida mijozlarning ishonchini qozonish va ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etish uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish zarurati yanada ortmoqda.

Shuningdek, bank-mijoz o'rtasidagi muloqotda psixologik omillar, masalan, ishonch, riskga munosabat, va qaror qabul qilishdagi xatti-harakatlar – bank mahsulotlarining muvaffaqiyatli sotilishiga va mijozlar sodiqligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, tijorat banklarining daromad strategiyalarini aholining xulq-atvori va savodxonlik darajasi bilan uyg'unlashtirish zamonaviy moliyaviy menejmentda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, u nafaqat banklar faoliyatini samarali tashkil etish, balki keng jamoatchilikning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 23-iyulida qabul qilingan "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-4400-sonli¹ qarorida O'zbekiston Respublikasi

1 <https://lex.uz/docs/-4435438>



Markaziy banki tomonidan aholi moliyaviy savodxonligini oshirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda aholi moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi "Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.[1]

Shuningdek 2020-yilning 27-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan "Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar" bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissinu uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarni o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" deb ta'kidladilar.

Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish global ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning turli metodologik yondashuvlar bo'yicha qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar iqtisodchi ekspertlari tomonidan turli yo'nalishlardagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash orqali uy xo'jaliklari, oila va individning (shaxsning o'zi) o'z ixtiyoridagi moliyaviy resurslarini boshqara olishi va ularni to'g'ri yo'naltirishdagi samarali qarorlarini baholashga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda, aholining moliyaviy savodxonligi darajasining aholi turmush darajasiga ta'siri ham baholanadi. Bunda monetar ko'rsatkichlar orqali uy xo'jaliklari, oila yoki shaxsning monetar xarakteristikasi shakllantiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning nazariy va amaliy jihatlari uzoq va yaqin xorijlik A.K. Sen, S. S. Artemeva, V. V. Mitroxin, E.N. Alifanova, Yu.S. Evlaxova, S.M.Vdovin, O. I. Averina, A. Chaplinska kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil etilgan. Shuningdek O'zbekiston iqtisodchi olimlari Vaxabov A.V., Tashmatov Sh.A., Xaydarov N.X., Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A. tomonidan tadqiq etilgan. Bundan tashqari Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) va Jahon banki ekspertlari tomonidan mazkur yo'nalishda mamlakatlar o'rtasida tadqiqotlar o'tkazilgan. Ushbu olimlarning hamda xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarining ilmiy ishlari va tadqiqotlari tahlilini keltiramiz. moliyaviy munosabatlar va moliyaviy xulq-atvor mezonlari asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari davlatlararo hamda davlatlarning o'zidagi ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar asosida qiyoslash amalga oshirilgan [2].

Susan L. Rutledge. "Consumer Protection and Financial Literacy" Jahon banki tomonidan nashr etilgan mazkur ishchi hujjatda daromadi o'rta daraja bo'lgan yettita mamlakat Azarbayjon, Bolgariya, Xorvatiya, Chexiya, Latviya, Litva, Ruminiya, Rossiya Federasiyasi va Slovakiya mamlakatlari aholi moliyaviy savodxonligini oshirish hamda ularning huquqlarini himoya qilish sohasidagi qator ilg'or metodlar asosida amalga oshirilgan tadqiqotlar qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

E.N.Alifanova, Yu.S. Evlaxova "Анализ методических подходов к разработке индикаторов финансовой грамотности населения" ilmiy maqolada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan aholining moliyaviy savodxonlik darajasini o'lchash usullari tizimlashtirilgan va tahlil qilingan. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining aniqlashning turli metodik yondashuvlari va xorijiy mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlari natijalari qiyosiy tahlil etilgan [5].

A. Chaplinska "Оценка финансовых знаний молодежи в Латвии" ilmiy maqolada 2018-yilda Latviyada moliyaviy savodxonlikni oshirishga mas'ul bo'lgan milliy koordinator "Moliya va kapital bo'yicha komissiya" tomonidan ishlab chiqilgan aholi moliyaviy savodxonlik darajasini baholash tizimi va o'tkazilgan so'rovnoma yakunlarini hisoblash metodologiyasi tahlili amalga oshirilgan [8].

Vaxabov A.V., Tashmatov Sh.A., Xaydarov N.X., Vaxabov A.V. tomonidan yozilgan "Moliyaviy savodxonlik asoslari" o'quv qo'llanmasida "moliyaviy savodxonlik" tushunchasining mazmun va mohiyati, moliyaviy savodxonlikni oshirishning jahon tajribasi, xonadon xo'jaligi daromadlarining shakllanish manbalari, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va oilaviy tadbirkorlik rivojlantirish, oila byudjetini tuzish va favqulodda holatlar uchun zaxiralarni rejalashtirish hamda bank moliya yo'nalishlarining muhim jihatlari yoritilgan [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada turli davlatlar hamda xalqaro moliya tashkilotlarining aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholashdagi yondashuvlar tahlili metodlaridan foydalanilgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda Jahon bankining aholining moliyaviy savodxonlik darajasini turli indikatorlar yordamida aniqlashdagi ilmiy yondashuvlari, so'rovnoma ishlab chiqish metodologiyasi hamda mazkur so'rovnomalarda orqali dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini o'zaro qiyosiy tahlil metodlari asosida o'rganilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishdan oldin, moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning turli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda xalqaro moliya tashkilotlari Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) va Jahon banki katta tajribaga ega.

Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda "moliyaviy ta'lim" iqtisodiy kategoriyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda mamlakatda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga qaratilgan moliyaviy ta'limning yo'lga qo'yilganligi nazarda tutiladi. IHTT ekspertlari tomonidan berilgan xulosalarga ko'ra, moliyaviy ta'lim mamlakat aholisining o'z daromadini to'g'ri rejalashtira olishi, moliyaviy mahsulotlarni to'g'ri baholashi, moliyaviy risklarni inobatga ola bilishi, qabul qilingan qaror yoki iste'mol jarayonida amalga oshirilgan tanlovning o'zi uchun yuqori darajadagi foydaliligini ta'minlashi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi. Moliyaviy ta'lim mamlakatdagi aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining bank daromadlariga ta'siri:

Moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan mijozlar bank mahsulotlarining imkoniyatlaridan to'liq va ongli foydalanadi (masalan, muddatli depozitlar, kredit liniyalari, investitsiya xizmatlari).

Savodli mijozlar ko'proq tranzaksiyalar amalga oshiradi, bu esa bank uchun xizmat haqi va komissiyalar orqali qo'shimcha daromad manbai hisoblanadi.

Banklar tomonidan o'tkazilgan moliyaviy savodxonlik bo'yicha treninglar va aksiyalar (masalan, „Moliyaviy xabardorlik haftaligi“) mijozlar faolligini oshirishda samarador vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Tavsiya: Banklar o'zining marketing strategiyalariga moliyaviy ta'limni joriy qilish orqali daromad bazasini kengaytirishi mumkin.

Aholining xulq-atvori va psixologik omillarining bank xizmatlaridan foydalanishga ta'siri:

O'zbekiston aholisi orasida an'anaviy naqd pulga ishonch baland. Bu esa bank xizmatlarining keng ommalashuviga to'sqinlik qilmoqda.

Riskga nisbatan salbiy munosabat (masalan, kredit olishdan qo'rqish) sababli, ba'zi rentabelli bank mahsulotlariga talab yetarli darajada shakllanmaydi.

Shaxsiy tajriba va atrofda tilarning fikrlariga asoslangan qarorlar ko'pincha iqtisodiy manfaatdorlikni emas, emotsional xavfsizlikni ko'zlaydi.

Raqamli bank xizmatlarining savodxonlik va xulq-atvor bilan bog'liq tahlili:

Raqamli savodxonlik darajasining pastligi sababli ko'plab aholi mobil ilovalar, onlayn banking va QR to'lovlardan foydalanmaydi.

Texnologiyaga bo'lgan ishonch darajasi past bo'lsa, mijozlar „pulim yo'qolib qoladi“ degan qo'rquv bilan tranzaksiyalardan qochadi.

Yoshlarga qaraganda yoshi kattalarning ushbu xizmatlarga kirishishi qiyin kechmoqda – bu esa segmentatsiyani talab qiladi.

Yechim: Banklar raqamli xizmatlarni ommalashtirish uchun interfaol treninglar, maxsus yordam liniyalari va intuitiv interfeyslar joriy qilishi zarur.

Banklar tomonidan aholining xulq-atvorini o'rganishga asoslangan mahsulotlar dizayni:

Banklar psixografik segmentatsiyadan foydalanib, mijozlarga moslashtirilgan xizmatlar taklif qilmoqda (masalan, talabalarga mikrodepozitlar, yosh oilalarga ipoteka kreditlari).

Aholining odatlari va afzalliklari asosida „gamifikatsiya“, „bonus tizimlari“, „sodiqlik dasturlari“ kabi vositalar orqali ularni faol mijozga aylantirish mumkin.

Natija: Bu yondashuv banklarning daromad strukturasi diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

IHTT ekspertlari tomonidan aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida respondentlarning moliyaviy bilimlari, moliyaviy xulqlari va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirishlari baholanadi. Bunda intervyu metodi yordamida respondentga uning moliyaviy bilimlarini baholashga qaratilgan 8 ta, moliyaviy xulq-atvorini baholash bo'yicha 9 ta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga oid 3 ta savollar beriladi. Respondentlar tomonidan berilgan javoblarga ko'ra mamlakatlarni o'zaro moliyaviy savodxonlik darajalari bo'yicha taqqoslash mumkin bo'ladi. [3] [4]

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Germaniya va Malayziya mamlakatlari har uch komponent bo'yicha 50 foizlik ko'rsatkichdan yuqori natijani qayd etdi. Irlandiya mamlakatida faqatgina uzoq muddatli rejalashtirish bo'yicha ko'rsatkich 49 foizni tashkil etgan bo'lsa, qolgan komponentlar ko'rsatkichlari 50 foizdan yuqori hisoblanadi. Aholining moliyaviy bilimlarga egaligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni Vengriya (69 %) mamlakati qayd etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Janubiy Afrika (33%) mamlakati hissasiga to'g'ri keldi. Uzoq muddatli rejalashtirish bo'yicha tahlil natijalarida eng yuqori ko'rsatkich Peru (71%) mamlakatiga to'g'ri kelsa, eng past ko'rsatkichni Armaniston (11%) mamlakati qayd etdi [5] (1-jadval).



1-jadval. IHTT tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda mamlakatlar aholisining moliyaviy savodxonligi ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili [5].

Mamlakatlar	Yuqori darajadagi moliyaviy bilimlarga ega bo'lgan aholi ulushi	Yuqori (pozitiv) moliyaviy xulq atvorga ega bo'lgan aholi ulushi	Uzoq muddatli rejalashtirishga ijobiy munosabatda bo'lgan aholi ulushi
Albaniya	45	39	69
Armaniston	46	41	11
Chexiya	57	48	62
Estoniya	61	27	46
Germaniya	58	67	63
Vengriya	69	38	69
Irlandiya	60	57	49
Malayziya	51	67	53
Norvegiya	40	59	57
Peru	41	60	71
Polsha	49	43	27
Janubiy Afrika	33	43	54
Buyuk Britaniya	53	51	49

IHTT ekspertlari tomonidan jahon mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash jarayonida foydalaniladigan ushbu ko'rsatkichlar tizimi o'zaro aloqador bo'lib, aksariyat mamlakatlar qayd etgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq u darajada katta emasligini ko'rsatdi.

Xalqaro darajada mamlakatlardagi aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash va uni monitoringini amalga oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda IHTT bilan bir qatorda Jahon banki guruhi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki guruhi metodolgiasiga muvofiq moliyaviy savodxonlik darajasini baholashda ikki xil yondashuv mavjud: “Moliyaviy savodxonlik” va “Moliyaviy kompetentlilik” [4].

Birinchi yondashuvga ko'ra, moliyaviy savdoxonlikning uch tarkibiy komponentlarini baholashga qaratilgan so'rovnomaga orqali tadqiqotlar amalga oshiriladi. So'rovnomaga tarkibiy jihatdan uch blokka ajratilgan holda tegishli savollardan tashkil topgan holda, birinchi blok ko'nikma, ikkinchi blok bilim va so'nggi uchinchi blok malakaviy savollardan tashkil topadi.

Respondentlarning moliyaviy ko'nikmalari ularning elementar holatlarda qabul qiladigan to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lgan qarorlari bilan tavsiflanadi. Moliyaviy ko'nikmalar insonning umri davomida shakllanib va o'rttirib borilish xususiyati bilan xarakterlanadi. Insonning yoshi katta bo'lgan sari u o'zining shaxsiy yoki oilaviy budjetini rejalashtirishi jarayonlarida dastlabki qarorlarini qabul qilishi va undagi xatoliklarni o'zi anglab etib borishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Aholining moliyaviy bilimlarini baholash jarayonida respondentlarga beriladigan savollarda asosan moliyaviy bozor va uning segmentlari, moliyaviy tovar va xizmatlarning xususiyatlari, moliya bozori funksiyalari va vazifalari, respondent tomonidan qabul qilingan qarorlarning uning uchun yuqori darajadagi daromadlilikini baholay olishi va tushunishi, kredit, soliq, murakkab foizlarni hisoblash va moliyaviy tovar va xizmatlardan foydalanish jarayonida tuzilgan shartnomalarning mohiyati, ularda ko'rsatilgan majburiyatlarni to'g'ri anglashi bilan bog'liq bo'ladi.

So'rovnomaning uchinchi blokidagi moliyaviy malaka bo'yicha savollarda respondentlarning moliyaviy mahsulot va xizmatlardan to'g'ri foydalana olishi, mazkur bozordagi holatlarni kuzatib borishi va tahlil qilishi hamda ularni iste'mol qilish jarayonida qabul qilinadigan qarorlarda ko'rsatilayotgan xizmatlar va tovarlarning alternativ variantlari bilan o'zaro solishtirgan holda eng maqbulini tanlay olishi, tuzilgan moliyaviy shartnomalarda ko'rsatilgan holatlar bo'yicha o'z haq-huquqlarini tushunishi va ularni himoya qila olish kabi qobiliyatlari bo'yicha savollar beriladi [5].

Jahon banki ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan aholining moliyaviy savodxonligini baholashning “Moliyaviy kompetentlilik” yondashuviga asoslangan tadqiqotlar moliya tizimi begaror bo'lgan mamlakatlarda



amalga oshirilishi qator qiyinchiliklarni vujudga keltirdi. Bunday mamlakatlarda aholiga ta'lim tizimining turli yoki ayrim bosqichlarida moliyaviy bilimlar berib borilgan bo'lishi va aholida moliya bozoriga oid elementar tushunchalar mohiyatini tushunishi lozim bo'ladi. Masalan, fuqaro yillik 11 foiz hisobida bank yoki moliya tashkilotiga depozit qo'yadi va bir necha oydan so'ng mamlakatdagi yuqori inflyatsiya hisobga u olishi mumkin bo'lgan daromadini va o'z mablag'ining qadrini tushib ketishi hisobiga moliyaviy zarar ko'radi. Fuqaro bunday vaziyatda ham bank yoki moliyaviy tashkilotda o'z depoziti shakllantirsa, uning moliyaviy kompetentlik, ya'ni savodxonligi darajasi past hisoblanadi. Amaliyotda bu turdagi mamlakatlarda aholining bank va moliya tashkilotlariga ishonchi past bo'ladi. Mamlakatdagi amalga oshirilayotgan iqtisodiy, moliyaviy va sug'urta tizimidagi islohotlaridan aholi ko'zlangan darajada foyda ko'rmaydi. Aholi daromadlari ortib borgani bilan uning xarid qobiliyati pariteti tushib boraveradi. Aholining daromadi sezilarli darajada ortgani bilan ularning iste'moli hajmi va sifati o'zgarmaydi. Natijada mamlakatdagi yashirin iqtisodiy munosabatlar rivojlanadi. Bunday mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar kutilgan samarani bermasligi mumkin. Chunki respondentlar so'rovnoma o'tkazish jarayonida o'z moliyaviy imkoniyatlarini berkitishga harakat qiladilar. Bu esa natijalardagi xatoliklarni yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi [4].

Xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida uy xo'jaliklari (oilalar, yoki shaxs) daromad va xarajatlari o'zaro o'rindosh ko'rsatkichlar sifatida qo'llaniladi. Masalan, Yevropa Komissiyasi eksperti A.B. Atkinson tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda uy xo'jaliklari daromadi ularning moliyaviy savodxonligi darajasini baholashda etarli omil bo'la olmasligi o'z isbotini topgan. Aksariyat iqtisodiy rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan mamlakatlarda aholi daromadlari orqali mamlakatdagi aholi turmush darajasi ko'rsatkichi baholanadi. Bu esa o'z navbatida nisbatan mukammal bo'lmagan va xatolik yuqori bo'lgan natijaga erishishga olib keladi. Amaliyotda har doim ham yaqinlardan qarz olish va boshqalar) yoki o'z jamg'armalarini ishlatish kabi holatlar uchraydi. Bunday vaziyatda keyingi oylardagi turmush darajasi ko'rsatkichi nisbatan pasayadi. Chunki qarzдорlikni yopish zaruriyati yoki jamg'arma mablag'ning sarflanishi natijasida aholi o'z daromadlarini ma'lum bir qismidan to'liq foydalana olmasligi holati sababli, ularning iste'molidagi ma'lum bir cheklavlarni vujudga kelishiga olib keladi [6].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan hududlar kesimida daromadlari darajasi bo'yicha tasniflangan aholi guruhlariga nisbatan inflyatsiyaning ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotda daromad darajasi nisbatan yuqori aholi guruhlarida (daromadlari 3 mln.so'mgacha bo'lgan uy xo'jaliklari bundan mustasno) umumiy daromadlari ularning umumiy xarajatlari miqdoridan yuqoriligini ko'rsatmoqda va bu uy xo'jaliklariga o'z daromadlarining bir qismini tejash imkonini beradi [7].

Va aksincha xarajatlari miqdori daromadlaridan yuqori bo'lgan uy xo'jaliklari iste'molining bir qismini qisqa muddatli qarz majburiyatlari bilan qoplanishi ma'lum bo'ldi. Mazkur vaziyatdan kelib chiqib, mamlakatimizda aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqish, shu asosda so'rovnoma o'tkazish va natijalariga asosan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining daromadlarini oshirishda aholining moliyaviy savodxonligi va iqtisodiy xulq-atvori hal qiluvchi ahamiyatga ega. Moliyaviy bilimlar yetarli bo'lmagan, bank tizimiga nisbatan ishonchi past bo'lgan mijozlar nafaqat bank xizmatlaridan kam foydalanadi, balki raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etishga ham to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, aholining xatti-harakatlari – ya'ni mablag'ni boshqarishdagi odatlari, riskga bo'lgan munosabati va xizmat tanlashdagi psixologik omillari banklar uchun xizmatlar dizaynini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Demak, bank daromadlarini barqaror oshirish uchun aholining moliyaviy madaniyatini rivojlantirish va ularga individual yondashuvni kuchaytirish zarur.

Yuqorida keltirilgan tahlil va mulohazalardan kelib chiqib ushbu takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli dasturlar ishlab chiqish.

Banklar maktablar, oliygohlar, mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda moliyaviy savodxonlik kurslarini tashkil etishi kerak.

Maxsus onlayn platformalar, mobil ilovalar orqali interfaol o'quv materiallari taqdim etilishi lozim.

2. Psixografik segmentatsiyaga asoslangan mahsulotlar yaratish.

Mijozlar xatti-harakatlari asosida kredit, omonat va to'lov xizmatlarini shaxsiylashtirish.

“Gamifikatsiya” (reyting, bonus, sodiqlik dasturlari) orqali mijozlarni faol foydalanuvchiga aylantirish.

3. Raqamli xizmatlarga ishonchni oshirish.

Aholining raqamli savodxonligi past segmentlariga sodda interfeysli ilovalar va vizual tushuntiruvchi videolar taklif etish.

Keksalar va texnologiyadan uzoq mijozlar uchun “raqamli yordamchi” xizmatini joriy etish (masalan, bank filiallarida trening stollari).



4. Aholining iqtisodiy xulq-atvorini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar sonini ko'paytirish.

Banklar marketing departamentlari orqali mijozlar ehtiyojlari va ularning xizmat tanlashdagi psixologik omillarini o'rganib borishi zarur.

Aholi ishonchini oshirish uchun bank faoliyati bo'yicha ochiqlik va tushunarli axborot berilishi shart.

5. Mahalliy mentalitet va qadriyatlarni hisobga olgan reklama va kommunikatsiya.

Bank mahsulotlari targ'ibotida ishonch, oilaviy baraka, kelajak uchun jamg'arma kabi qadriyatlarga urg'u berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-4400 sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4435438>
2. A.V.Vaxabov, Sh.A.Tashmatov, N.X.Xaydarov, A.V.Vaxabov. Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma/ - Toshkent: Baktria Press.2013. 288b.
3. Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. № 15. OECD Publishing. URL: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en>
4. Susan L. Rutledge. Consumer Protection and Financial Literacy .Lessons from Nine County Studies: The World Bank, Europe and Central Asia Region, Finance and Private Sector Department (June 2010).URL: <http://www-wds.worldbank.org/external/default/WDSCContentServer/IW3P/IB/2010/06/03/00015834920100603082853/Rendered/PDF/WPS5326.pdf>
5. Alifanova E. N., Evlaxova Yu. S. Analiz metodicheskix podxodov k razrabotke indikatorov finansovoy gramotnosti naseleniya//.Finansi i kredit. 12 (540) – 2013.S 23.
6. Atkinson, A.B. (1983). The economics of inequality. Oxford: Clarendon Press.
7. "Turmush darajasi va inflyatsiya" Axborot-tahliliy ma'lumot O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Toshkent 2020 y. 11b.
8. А.Чаплинска «Оценка финансовых знаний молодежи в Латвии.» Банковская весна , LISTAPAD 2019. С. 47.
9. S.S.Artemeva, V. V. Митрохин Оценка финансовой грамотности российской и зарубежной молодежи и рекомендации по ее повышению / ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ. Т. 22, № 1. 2018.С 46.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>